



POSTINDUSTRIAL JAMIYATNI SHAKLLANTIRISHDA XIZMAT KO'RSATISHNING O'RNI HAMDA XALQARO SAVDODA BUNDAY JAMIYATNING AHAMIYATI

Do'stov Lochinbek Farxod o'g'li

Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti, Iqtisodiyot fakulteti, Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha), 2-bosqich talabasi.

lochinbek19990927@gmail.com,

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6545348>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01- may 2022

Ma'qullandi: 10- may 2022

Chop etildi: 15- may 2022

KALIT SO'ZLAR

postindustrial, konsepsiya, Linder gipotezasi, Leontyev Statistikasi, savdo profitsiti va defitsiti, Xalqaro standart sanoat tasnifi (ISIC), qo'shilgan qiymat.

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy ishda postindustrial jamiyatning shakllanishning ahamiyati, YaIMdagi xizmatlar sohasining ulushi, qo'shilgan qiymat yaratishdagi va xizmat ko'rsatish sohasida inson kapitalining o'rni, xalqaro munosabatlarda Xeksher-Olin va Leontev nazariyalaridagi ayrim kamchiliklar aks ettirilgan va uning natijasida yuz beruvchi barcha hodisalar va ularning o'zaro uzviy dialektik, induktiv va diduktiv usullar orqali iqtisodiy jarayonlarning o'rtasidagi tafovutlarni tahlil qilish va ularga mos fikr bildirishda nazariya hamda turli xil statistik ko'rsatgichlar orqali asoslab berilgan.

Dunyoda iqtisodiy jarayonlar shakllangandan buyon, mamlakatlar turli xil davrlarda, turli xil jamiyatlarni evalyutsiyasi asta-sekinlik yoki revalutsion yo'l orqali boshdan kechirdi, ammo XX asrning 40-50-yillarida kelib bu jarayonlar shiddat bilan avj oldi. Sababi, ilm-fan taraqqiyoti hamda geografik kashfiyotlar natijalarining texnologiyalar bilan uzviy integratsion jarayoni yangi bir jamiyatning shakllanishiga turtki bo'ldi. Bu jarayonlarni sanoatlashgan jamiyat yoki postindustrial jamiyat deb ataladi. Har bir mamlakat ma'lum bir vaqtda o'z iqtisodiy evalyutsiyasini oltita jamiyat shaklida pog'onama-pog'ona bosib o'tadi:

- Ovchilik va terimchilik jamiyatlari.
- Pastoral jamiyatlar (Chorvachilikga asoslangan jamiyat)
- Bog'dorchilik jamiyatlari.

- Qishloq xo'jaligi jamiyatlari.
- Sanoat jamiyatlari.
- Postindustrial jamiyatlar.

Postindustrial jamiyat - bu jamiyat evolyutsiyasida iqtisodiy tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni ta'minlashdan asosan xizmatlar ko'rsatadigan jamiyatga o'tadigan bosqichdir. Postindustrial atamasini Alen Turen tomonidan yaratilgan va postfordizm, axborot jamiyati, ilmiy-texnikaga asoslangan iqtisodiyot, postindustrial iqtisodiyot, likvid zamonaviylik va tarmoq jamiyati kabi o'xshash sotsiologik nazariy tushunchalar bilan chambarchas bog'liqligini ta'riflab beradi. Ularning barchasi iqtisodiyot yoki ijtimoiy fanlarida umumiy nazariy fan sifatida ishlatila boshlandi. Ushbu atama ishlatilganligi sababli, bir nechta umumiy mavzular, jumladan, quyidagi mavzular



paydo bo'la boshlagan. Alan Turen¹ bun quyidagicha ta'riflaydi:

1. Iqtisodiyot tovar ishlab chiqarishdan xizmatlar ko'rsatishda o'tish davrini boshidan kechirishi.
2. Aqliy kapitalning qiymati ahamiyatli shakliga aylanadi, inson kapitali rivojlana boshlanadi.
3. G'oyalar ishlab chiqarish iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'lidan biri bo'la boshlaydi.
4. Globallashtirish va Avtomatlashtirish jarayonlari tufayli, shu jumladan qo'l mehnati(masalan; yig'ish ishi) va professional ishchilar(masalan; olimlar, ijodiy-sanoat mutaxassislari) iqtisodiyoti uchun qiymati va ahamiyati pasayib borishi va (IT-mutaxassislari) qiymati va tarqalishi ortib borishi kuzatiladi.
5. Axborot fanlari va texnologiyalari ishlab chiqilishni va joriy etila boshlanadi(masalan; neyroiqtisodiyot, o'yinlar nazariyasi, axborotlar nazariyasi va h.k) Ishlab chiqarish sanoatlashgan jamiyatda asosan qurilish, to'qimachilik, tegirmon va ishlab chiqarishda ishlaydigan odamlardan iborat bo'lsa, xizmat ko'rsatish sohasida esa odamlar o'qituvchi, shifokor, huquqshunos va chakana savdo ishchilari bo'lib ishlaydi. Postindustrial jamiyatda iqtisodiyot texnologiya, axborot va xizmatlar haqiqiy tovarlar ishlab chiqarishdan muhimroqdir. Shuning uchun ham Iqtisodiy nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, bu xizmat ko'rsatish sohasi, inson omilining yoki uchinchi darajali sektorning yuksalishi va ixtisoslashuvi bilan bog'liq bo'lib, u ishlab chiqarish yoki

iqtisodiyotning ikkilamchi sektoriga qaraganda ko'proq boylik ishlab chiqaradi. Bu iqtisodiy jamiyat iqtisodiyot yoki mamlakat ichidagi o'sish davrini inobatga olib, unda ishlab chiqarishning nisbiy ahamiyati pasayib, xizmatlar, axborot va ilm-fan taraqqiyoti tadqiqotlari o'sib boradi. Bunday jamiyatlar ko'pincha ishlab chiqarish sektorining qisqarishi bilan ajralib turadi, natijada industrilizatsiya va yirik xizmat ko'rsatish sohasi hamda axborot

texnologiyalarining hajmining ko'payishi ko'pincha "axborot asriga" olib keladi. Alen Turen postindustrial haqida fikr bildirgan bo'lsada, ammo Sotsiolog Daniel Bell² 1973-yilda eng birinchilar qatorida o'z asarida ommalashtirdi va u "Postindustrial jamiyatning vujudga kelishi: ijtimoiy prognozlash tashabbusi" kitobida ushbu kontsepsiyani muhokama qilib, "postindustrial" atamasini ishlatib unga to'liq ta'rif berib o'tdi. U o'zining asarida postindustrial jamiyatlar bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlarini va o'zgarishlarini tasvirlab beradi. Unga ko'ra:

- ❖ Tovar ishlab chiqarish pasayadi va xizmatlar ishlab chiqarish (masalan, restoranlar) e'tibor oshadi.
- ❖ Qo'l mehnati ish o'rinlari texnik va professional xodimlarning ishlari bilan almashtiriladi.
- ❖ Jamiyat amaliy bilimlarga e'tibor qaratishdan nazariy bilimga o'tishni boshdan kechiradi. Ya'ni ixtirolar muammolarning yechimlarini yaratishni o'z ichiga oladi.
- ❖ Yangi texnologiyalar, ularni qanday yaratish va ulardan foydalanishga bo'lgan e'tibor oshadi.

¹ **Alen Turen**
<http://www.worldcat.org/identities/lccn-n79075230/>

² **Daniel Bell**
https://uz.wikicsu.ru/wiki/Daniel_Bell



❖ Yangi texnologiyalar IT va kiberxavfsizlik kabi yangi ilmiy yondashuvlarga bo'lgan ehtiyojlar kuchayadi.

❖ Jamiyat texnologik o'zgarishlarni rivojlantirish va rivojlantirishga yordam beradigan ilg'or bilimga ega bo'lgan ko'proq kollej bitiruvchilariga muhtoj bo'ladi va ma'lumot ahamiyatsiz bo'lib qoladi.

Shunday qilib, yuqoridagi fikrlar va mulohazalardan kelib chiqib Alan Turen hamda Daniel Bellning fikrlarining o'xshashligi kuzatiladi. Bu esa Postindustrial jamiyat haqidagi aniq bir g'oyaning shakllanishiga turtki bo'ladi. Ammo Daniel Bellning qarashlari postindustrial jamiyat haqidagi yondashuvlari yangi bir tarmoqlar yaratilishiga asos bo'laoldi. Bu Ko'pgina ilg'or mamlakatlarning iqtisodiy faoliyatidagi bu o'zgarish "postsindustrial jamiyatning kelishi" sifatida tasvirlangan (Bell 1973). Bellning ta'kidlashicha, bu o'zgarish jamiyat tabiatidagi muhim o'zgarishlar bo'lib; "postindustrial jamiyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi endi sanoat davridagi kabi energiya emas, balki axborotdir" deb ta'kidlaydi. Haqiqatdan ham, bu axborot jamiyati nazariyasi uchun asos bo'ldi; markaziy faoliyat sifatida axborotni ishlab chiqarish, qayta ishlash va manipulyatsiya qilishga asoslangan ijtimoiy tashkilotning yangi shakliga o'tganimiz haqidagi g'oya hamda [tarmoqqa ulangan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining](#) keng tarqalishi axborot jamiyati kontsepsiyasini shakllanishida muhim omil bo'lib hisoblandi. Natijada, axborot, bilim va inson kapitaliga ega bo'lish, manipulyatsiya qilish va muloqot qilish imkonini beradigan

vositalar yuqori ahamiyatga ega degan tushuncha zamonaviy iqtisodiyot, siyosatga kirib keldi. Bell ta'riflagan postindustrial jamiyatda ta'lim, malaka va kasbiy akkreditatsiya ijtimoiy muvaffaqiyatning muhim omili hisoblanadi. U axborot jamiyati rivojlanishi bilan bog'langan asosiy tendentsiyalarga axborot bilan bog'liq ishlarda bandlikning o'sishi, axborotni ishlab chiqarish, uzatish va tahlil qilish bilan bog'liq biznes va sanoatning yuksalishi, texnologlar ya'ni rejalashtirish va tahlil qilish uchun ma'lumotlardan foydalanish bo'yicha malakali menejerlar va mutaxassislarining qaror qabul qilishda markaziylik ortib borishini AQSH misolida postindustrial jamiyatning asosiy tendensiyalarini aniqlab, ta'riflab berdi. Uning eng muhim tendentsiyasi, ishchi kuchining aksariyat qismining qishloq xo'jaligi (birlamchi sektor) va ishlab chiqarishdan (ikkilamchi sektor) xizmat ko'rsatish (uchinchi daraja) sohasiga o'tishi bo'ldi. [Axborot sohasidagi o'sish, birinchi navbatda, intellektualga oid kasblar, xizmat ko'rsatish sohalarining](#) o'sishiga yordam berdi.³ Postindustrial axborot jamiyatlarida aniqlangan ikkinchi tendentsiyasi, ijtimoiy va iqtisodiy bilim institutlarini, shu jumladan nazariy bilimlar va metodologik usullarni boshqarish va ushbu bilimlarni kodifikatsiya qilishning ortib borayotgan ahamiyatiga qaratdi. [Bell postindustriya davrining markaziy muammolari murakkab tashkilotlar va tizimlarni bashorat qilish,](#) rejalashtirish va boshqarish uchun muhim bo'lgan tizimlar nazariyasi, operatsiyalarni tadqiq qilish, modellashtirish va simulyatsiya kabi bilim

³ <https://www.sciencedirect.com/topics/social-sciences/postindustrial-societies>



va texnikalar atrofida aylanishini ta'kidladi. Uning yakuniy uchinchi tendentsiyalar to'plami hokimiyatning o'zgarishini, xususan, professional va boshqaruvchi qatlamning - salohiyatli xodimlarining ortib borayotgan nufuzini o'z ichiga oladi. Bular salohiyat, axborot tizimlari, simulyatsiyalar va tegishli intellektual texnologiyalar bilan ishlashni tushunadigan va nou-xauga ega bo'lgan shaxslarni inobatga oladi. Ular murakkablashib borayotgan vaziyatlarda qaror qabul qilish jarayonlari uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Shunday qilib, Bell "postindustrial(axborot) jamiyatining paydo bo'lishi, uning intellektual texnologiyalarga ko'proq bog'liqligi bilan mutaxassislarning nisbiy salohiyati, intellektual imkoniyatlari hamda ularning kuchi ortishi kerak" degan xulosaga keladi⁴.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shunday ekan, bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayoni ketayotgan bir vaqtda, mamlakatlar o'zining iqtisodiy pozitsiyalarini yaxshilash uchun turli xil ixtisoslashuv jamiyatlarini evalyutsion yo'l bilan amalga oshirmoqdalar. Bu esa, dunyoda iqtisodiy potensiali va salohiyati yuqori bo'lgan mamlakatlar, o'zlarining yuqori iqtisodiy-ijtimoiy qudrati bilan yangi postindustrial jamiyatga qadam qo'yishmoqda. Ba'zi bir mamlakatlar esa o'z imkoniyatlarini hali ham qishloq xo'jaligi va sanoatlashgan jamiyatga safarbar etmoqdalar.

Yuqoridagi fikrdan kelib chiqib, bir g'oya ishonch bilan aytiladiki, ya'ni har bir


jamiyat bir-birini uzviy bog'lab turadi va to'ldiradi. Bu jarayonlar ishlab chiqarish omillarining har bir jamiyatda ulushini baholab beradi, ya'ni sanoatlashgan jamiyat agrar(qishloq xo'jaligi) jamiyatiga ishlab chiqarish omillarini safarbar etadi va bu jarayon teskari bo'lishligi uchun agrar jamiyat industrial jamiyatga faqatgina resurs(tabiiy boylik, qazilmalar, kamyob metallar va h.k.)larni yoki qora mehnat kuchini qaytim sifatida safarbar etaoladi. Sababi, bir pog'ona yuqori turgan jamiyat ishlab chiqarish omillariga yetarlicha to'yingan bo'ladi. Natijada, uning asosiy xom-ashyosi sifatida axborot, bilim va ijodkorlik qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Postindustrial iqtisodiyotining sanoat qudrati yuqolmaydi, aksincha, kam rivojlangan mamlakatlarga yuboriladi, ular autsorsing orqali kamroq xarajat evaziga kerakli narsalarni ishlab chiqaradilar va o'z-o'zidan industrial jamiyati mehnat kuchining safarbari evaziga postindustrial jamiyatga xizmat qiladi. Iqtisodiyot nazariyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bunga o'xshash fikrlarni 1930yillarda Xalqaro savdodagi zamonaviy qarash tarafdorlari sifatida shved iqtisodchi olimlari Eli Xeksher va Bertil Olinlarni ko'rsatish mumkin. Ular "mamlakatlar o'zlarida ortiqcha bo'lgan ishlab chiqarish omilini ko'p talab qiladigan mahsulotlarni eksport qilishadi va aksincha, o'zlarida taqchil bo'lgan ishlab chiqarish omillarini ko'p talab qiladigan mahsulotlarni import qiladilar va misol sifatida bir vaqtda ikki mamlakat, ya'ni, "sanoatlashgan" va "agrar" mamlakat faoliyat ko'rsatmoqda⁵. Sanoatlashgan mamlakatda ortiqcha

⁴ Horst Siebert "The World Economy" ISBN 9780203815359 Published April 27, 2018 by Routledge 2nd Edition

⁵ Michael Lewis "Travels in the New Third World" Paperback, Published September 4th 2012 by W. W. Norton Company


kapital va ma'lum miqdorda ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'ladi. Agrar mamlakatda esa ortiqcha yer mavjud, ammo kapital etishmaydi. Ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda kapital asosiy omil hisoblanadi. Masalan, neftni qayta ishlash, elektron mashinasozlik va mashina ishlab chiqarish sohalari kam ishchi kuchidan foydalangan holda kapital talabchan ishlab chiqarish hisoblanadi.

Kapital ortiqchaligiga ega bo'lgan mamlakatlar aynan ushbu yo'nalishlarga ixtisoslashadilar. Shu bilan birga, don etishtirish va chorvachilik bilan shug'ullanadigan mamlakatlarda ko'proq yer resurslari kerak bo'ladi va ular shu yo'nalishga ixtisoslashgan bo'ladilar" degan fikrni ilgari suradilar. Uning nazariyasiga ko'ra;



(1-rasm) Xeksher-Olin konsepsiyasi²

Asosiy vaziyatda: ikkita bir xil davlat (A va B) turli xil boshlang'ich omillarga ega. Har bir mamlakat muvozanati (A^A, A^B) da holatida savdo yo'q va mavjud emas, shunda individual ishlab chiqarish iste'molga tenglashadi. Bu holatda, Savdo muvozanati: ikkala mamlakat ham bir xil iste'mol qiladi ($C^A = C^B$), ayniqsa o'zlarining [ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasidan](#) tashqarida, ishlab chiqarish va iste'mol nuqtalari farqlanadi deb ta'kidlab o'tadi. Uning nazariyasining asosi



ham rasmdagi grafikda aks ettirilgan (1-rasm)⁶.

Ammo ko'p vaqt o'tmay "Leontev taajjubi" yuzaga kelishiga sabab bo'ldi, bunda "Leontev paradoksi – mehnat resursiga boy mamlakatlar kapital sig'imkorligi yuqori bo'lgan tovarlarni eksport qiladi, kapitalga boy mamlakatlar esa mehnat sig'imkorligiga yuqori bo'lgan tovarlarni eksport qiladi" degan fikrni ilgari suradi, ya'ni Xeksher-Olin konsepsiyasiga zid keladigan vaziyat yuzaga keldi. V.Leontev "AQSh misolida 1947 yilda har bir ishchiga to'g'ri keladigan kapital yuqori bo'lgan mamlakat eksportida kapital/mehnat

⁶ A.V.Vaxabov, D.A.Tadjibayeva, SH.X.Xajibakiyev "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlari"



nisbati importga nisbatan pastroq bo'ladi" munosabatni ilgari suradi. Leontev paradoxsi Xeksher-Olin nazariyasining haqiqiyligiga putur etkazdi, u ishlab chiqarishning ayrim omillarida (masalan, kapital va mehnat) mamlakatlarning qiyosiy ustunligiga asoslanishini bashorat qildi. Ko'pgina iqtisodchilar Xeksher-Olin nazariyasini texnologik farqlar qiyosiy ustunlikni belgilaydigan ko'proq Rikard modeli foydasiga rad etishdi. Ushbu iqtisodchilar AQSHni yuqori haq to'lanadigan mehnatda kapitaldan ko'ra ko'proq afzalliklarga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Buni "kapital"ni kengroq ko'rib chiqish, jumladan, inson kapitali sifatida ko'rish mumkin. Ushbu ta'rifdan foydalanib, AQSH eksporti ko'p inson kapitalni talab qiladi va kam maoshli mehnatda ayniqsa intensiv emasligini isbotlaydilar. Paradoksning ba'zi tushuntirishlari qiyosiy ustunlikning savdoni belgilovchi omili sifatidagi ahamiyatini rad etadi. Masalan, Linder gipotezasida aytilishicha, talab qiyosiy ustunlikdan ko'ra savdoning hal qiluvchi omili sifatida muhimroq rol o'ynaydi va gipoteza bilan bir xil talablarga ega bo'lgan mamlakatlar savdo qilish ehtimoli ko'proq bo'ladi. Misol uchun, AQSH ham, Germaniya ham avtomobillarga katta talabga ega rivojlangan mamlakatlardir, shuning uchun ikkalasida ham yirik avtomobil sanoati mavjud. Qiyosiy ustunlikka ega bo'lgan sanoatda hukmronlik qiladigan bir mamlakat o'rniga, ikkala mamlakat o'rtasida turli markadagi avtomobillarni savdo qiladi. Xuddi shunday, yangi savdo nazariyasi qiyosiy ustunlik omillar ta'minlanganligi o'zgarishidan (masalan, sanoat daromadlarining miqyosga o'sishida) alohida rivojlanishi mumkinligini

ta'kidlaydi. Bunday fikrlar va nazariyalardan kelib chiqib shuni aytish joyizki, Xeksher-Olin va Leontev nazariyalarida faqatgina kapital va mehnat sig'imiga e'tibor qaratishgan, ammo ular kapitaldagi inson omilining ulushi, mehnatdagi inson kapitalining salohiyatini, mamlakatning texnika taraqqiyoti va eng muhim bo'lgan uchunchi sektorning iqtisodiyotga ta'sirini yetarlicha baholamaganlar va ularning muhokamalari, bahslari o'z-o'zidan Postindustrial jamiyatning xususiyatlarini ochib beradi. Ya'ni, Leontyev 1947-yildagi AQSHning tovarlarini ishlab chiqarish uchun sarf etiladigan kapital va mehnat nisbatini isoblab chiqib, aslida u "Amerika import birligini sarf etiladigan kapital va mehnat $(K \setminus L)_{im}$ hamda eksport birligiga sarf etiladigan kapital va mehnat $(K \setminus L)_{ex}$ nisbatini solishtirdi. Bunda "Leontyev Statistikasi" nomini olgan ushbu nisbatga muvofiq, agar mamlakatda kapital va mehnat sarfi nisbati $\frac{(K \setminus L)_{im}}{(K \setminus L)_{ex}} < 1$, bo'lsa, mamlakat kapitalga boy hisoblanadi, agar bu nisbat $\frac{(K \setminus L)_{im}}{(K \setminus L)_{ex}} > 1$, bo'lsa, mamlakatda mehnat resurslari ko'p hisoblanadi" deb ta'kidlaydi. Endi navbat, bu muxokamani Iqtisodiy matematika nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak $\frac{(K \setminus L)_{im}}{(K \setminus L)_{ex}} < 1 \Leftrightarrow \frac{(K \setminus L)_{im} \times (K \setminus L)_{ex}}{(K \setminus L)_{ex}} < (K \setminus L)_{ex}$ va $\frac{(K \setminus L)_{im}}{(K \setminus L)_{ex}} > 1 \Leftrightarrow \frac{(K \setminus L)_{im} \times (K \setminus L)_{ex}}{(K \setminus L)_{ex}} > (K \setminus L)_{ex}$, bundan ko'rinadiki, $(K \setminus L)_{im} < (K \setminus L)_{ex}$ hamda $(K \setminus L)_{im} > (K \setminus L)_{ex}$ hosil bo'ladi.

⁷ A.V.Vaxabov, D.A.Tadjibayeva, SH.X.Xajibakiyev "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlari"




Natijada; $(K/L)_{im} < (K/L)_{ex}$ holda, eksport ulushi import ulushidan yuqori bo'lsa, mamlakat kapitalga boy hisoblanadi. Agar $(K/L)_{im} > (K/L)_{ex}$ ko'rinishida import ulushi eksport ulushidan yuqori bo'lsa mamlakat mehnat resursiga boy hisoblanadi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Shunday ekan, Yalpi Ichki Mahsulot (YaIM) mamlakatning umumiy iqtisodiy faoliyatining keng ko'lamlı o'lchovidir. Import va eksport YaIMni hisoblashning xarajatlar usulining muhim tarkibiy qismidir. YaIM formulasi quyidagicha:

$$YaIM = C + I + G + (X - M)$$

- C =Iste'molchining tovarlar va xizmatlarga sarflagan xarajatlari
- I =Tadbirkorlik kapitaliga investitsiya xarajatlari
- G =Davlat tovarlari va xizmatlariga davlat xarajatlari
- X =Eksport
- M =Import.

Ushbu tenglamada eksport minus import($X-M$), Eksport importdan ko'p bo'lsa, sof eksport ko'rsatkichi ijobiy bo'ladi. Bu mamlakatda savdo profitsiti borligini ko'rsatadi. Eksport importdan kam bo'lsa, sof eksport ko'rsatkichi salbiy bo'ladi. Bu mamlakatda savdo kamomadi borligini ko'rsatadi. Savdo

profitsiti mamlakatda iqtisodiy o'sishga yordam beradi. Eksport ko'proq bo'lsa, bu mamlakatdagi zavod va sanoat ob'ektlaridan yuqori darajadagi mahsulot mavjudligini, shuningdek, ushbu zavodlarning ishlashini ta'minlash uchun ish bilan ta'minlangan odamlarning ko'pligini anglatadi. Agar mamlakat yuqori darajadagi tovarlarni eksport qilsa, bu ham iste'mol xarajatlarini rag'batlantiradigan va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadigan mamlakatga mablag'lar oqimiga tenglashadi. Rivojlangan iqtisodiyotda - bu eksport ham, import ham o'sayotgan iqtisodiyotdir. Bu odatda iqtisodiy kuch va barqaror savdo profitsiti yoki taqchilligini ko'rsatadi. Agar eksport o'sib borayotgan bo'lsa, lekin import sezilarli darajada kamaygan bo'lsa, bu tashqi iqtisodlarning ichki iqtisodiyotga qaraganda yaxshiroq holatda ekanligini ko'rsatishi mumkin. Aksincha, agar eksport keskin pasaysa, lekin import oshib ketsa, bu mahalliy iqtisodiyotning xorij bozorlariga qaraganda yaxshiroq ekanligini ko'rsatishi mumkin. Xeksher-Olin va Leontev nazariyalari o'sha davrdagi iqtisodiy jamiyati AQSH(postindustrial jamiyat) va Xitoy(sanoatlashgan jamiyat) kabi mamlakatlarning xalqaro savdo balansdagi xususiyatlari yetarlicha baholay olishmagan.



AQSH va Xitoyning xalqaro savdo balansi (2000-2021yillar oralig'i) (2-rasm)


Sababi, ayni 2022-yilda iqtisodiyoti eng rivojlangan jamiyatning xalqaro savdo balansi juda katta tafovutga ega, unga ko'ra, qiymati bo'yicha eksport qilganidan ko'ra ko'proq tovar va xizmatlarni import qiladigan mamlakatda savdo kamomadi yoki salbiy savdo balansi mavjud. Aksincha, importdan ko'ra ko'proq tovar va xizmatlar eksport qiladigan mamlakat savdo balansida ijobiy saldogga ega bo'ladi. Savdo taqchilligi yuzaga kelishi deyarli aniq bo'lgan davlatlar bor. Amerika Qo'shma Shtatlari, bu erda savdo kamomadi yaqinda sodir bo'lmagan. Bu natija, mamlakatda 2000-yillardan beri doimiy savdo taqchilligi mavjud. XIX asrning ko'p qismida mamlakatda ham savdo taqchilligi mavjud edi (1800-1870 yillar oralig'ida Qo'shma Shtatlar uch yildan tashqari hamma vaqt davomida savdo defitsitiga uchragan). Xitoyning savdo profitsiti esa oshdi. 2020-yil iyul oyida Xitoy 230 milliard dollarlik eksportdan 110 milliard dollarlik ortiqcha ishlab chiqargan mahsulotlar ishlab chiqardi - shuning uchun import qilinadigan qismlarni hisobga olsak ham, Xitoy import qilinadigan har bir ishlab chiqarilgan mahsulot uchun 2 dollarlik ishlab

chiqarilgan mahsulotni eksport qilishga yaqinlashmoqda⁸(2-rasm).

Tahlillar natijasiga ko'ra, mamlakatlarning inson omili va xizmatlar sohasi ulushi ham xalqaro munosabatlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Bunda, kapitalga boy mamlakatda postindustrial jamiyatning xususiyati bo'lgan inson omili va xizmatlar sohasi ulushi yuqorimi yoki mehnat resursiga boy mamlakatda yuqorimi?

Iqtisodiy tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, inson kapitali iqtisodiyotning rivojlanishiga imkon beradi. Inson kapitali ilm-fan, ta'lim va boshqaruv kabi sohalarda ko'paysa, bu innovatsiyalar, ijtimoiy farovonlik, tenglik, resurslarning samaradorligini oshishi va ishtirok etish ko'rsatkichlarining oshishiga olib keladi, bularning barchasi iqtisodiy o'sishga yordam beradi. Iqtisodiy o'sish sur'ati aholining hayot sifatini yaxshilaydi. Shunday ekan, kapitalga boy mamlakatda, postindustrial jamiyatning xususiyatlari juda yuqori. Sababi, inson kapitali va iqtisodiy o'sish o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjud, shuning uchun u iqtisodiyotni yuksaltirishga yordam beradi.


⁸ Daron Acemoğlu, James A. Robinson "Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty" Published March 20th 2012 by Crown Business (first published March 2012)



Buyuk Britaniya va Xitoyda inson kapitaliga bo'lgan davlat xarajatlari foizda(2-rasm)

YUNESKOning Xalqaro iqtisodiy statistikasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, mamlakatlarning inson kapitaliga bo'lgan e'tibori ularning YaIMga nisbatan ta'limga davlat xarajatlari sifatida aks ettirilgan va davlat dasturi sifatida qaralgan, Bu statistikaga nazar tashlaydigan bo'lsak, inson omil yuqori bo'lgan yirik postindustrial jamiyatlar Buyuk Britaniya va Xitoy misolida qaraydigan bo'lsak ularda inson omiliga bo'lgan davlat xarajatlari 2018-yildan 2022-yilgacha bo'lgan davrda qisqarmoqda ammo ularning natijaviyligi esa YaIM da xizmatlar sohasining ulushi va xizmatlarning qo'shilgan qiymat yaratishi kun sayin oshib bormoqda. Qo'shilgan qiymat - barcha mahsulotlarni qo'shib, oraliq kirishlarni ayirgandan keyin sektorning sof mahsuloti. U ishlab chiqarilgan aktivlarning eskirishi yoki tabiiy resurslarning kamayishi va degradatsiyasi uchun ajratmalarsiz hisoblab chiqiladi. Qo'shilgan qiymatning sanoat kelib chiqishi Xalqaro standart sanoat tasnifi (ISIC), 3 yoki 4-reviziya bilan belgilanadi. Xizmatlarning qo'shilgan qiymat yaratishi AQSH va Xitoyda oxirgi davrlarda keskin oshib bormoqda, ammo Xitoyda xizmatlar sohasining YaIMda ulushi juda kam miqdorda 40%-50% oralig'ida, Yaponiya hamda Buyuk

Britaniyada esa YaIMda xizmatlar ulushi 70%ga yaqinlashgan bo'lsa ham qo'shilgan qiymat yaratishda esa 5000\$ ga yaqinlashgan va xizmatlar sohasining sof mahsuloti juda kam(3-4rasm).




Postindustrial jamiyatarning YaIM da xizmatlar sohasining ulushi va xizmatlarning qo'shilgan qiymat yaratishi(3-4rasm)⁹

⁹ Jahon banki
<https://www.theglobaleconomy.com/compare-countries/>



Xizmatlarning qo'shilgan qiymati, milliard AQSH dollarida, 2021-Mamlakatlar reytingida: 2021 yil uchun 168 ta davlat bo'yicha o'rtacha 196,18 milliard AQSH

dollarini tashkil etdi. Eng yuqori ko'rsatkich Xitoyda: 8027,72 milliard AQSh dollari va eng past ko'rsatkich Palauda bo'ldi: 0,19 milliard AQSh dollari(5-rasm).



Xizmatlarning qo'shilgan qiymati, milliard AQSH dollarida, 2021-Mamlakatlar reytingi(5-rasm)

Shunday ekan, yangicha dunyoda, yangicha qarashlar orqali texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sektorlarining rivojlanishi Postindustrial jamiyatning shakllanishiga olib keldi. Iqtisodiyotni ishlab chiqarish sohalari(masalan, avtomobillar, to'qimachilik, kemasozlik, po'lat)ga e'tibor qaratishgan va nihoyat zamonaviy dunyoda xizmat ko'rsatishga asoslangan tizimga olib boradigan rivojlanishning tez o'sish sur'atlarini namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy dunyoda bu yo'lni bosib o'tgan birinchi iqtisodiy tizim Buyuk Britaniya bo'ldi, vaqt o'tishi bilan boshqa iqtisodiyotlarning xizmat ko'rsatishga asoslangan yoki "Postindustrial" iqtisodiyotiga o'tish tezlashdi. Tarixan, ishlab chiqarish xizmat ko'rsatishdan ko'ra xalqaro savdo va raqobatga ko'proq ochiq bo'lgan. Ammo, odamlarni tashish va ma'lumot uzatishda xarajatlarning keskin kamayishi, tezlik va ishonchlilikning yaxshilanishi bilan xizmat ko'rsatish sohasi proteksionizm qoldig'iga qaramay, hozirda eng qizg'in xalqaro raqobatni o'z ichiga olgan iqtisodiyot sohasi sifatida shakllanmoqda. Postindustrial jamiyatda

xizmat ko'rsatishning ahamiyati yuqori ekan, uning tarkibi juda muhim hisoblanadi. Shunday ekan, xizmat ko'rsatish sohasi(telekommunikatsiya, turizm yoki mehmonxona xizmati, ommaviy axborot vositalari, sog'liqni saqlash, axborot texnologiyalari, chiqindilarni o'tilizatsiya qilish, konsalting, qimorxonalar, chakana savdo, te'z harakatlanuvchi iste'mol tovarlari, franchayzinglar, ko'chmas mulklar, ta'lim, moliyaviy xizmatlar, professional xizmatlar, transport, ilmiy-texnika va h.k.)lardan tashkil topgan. Iqtisodiyotning ishlab chiqarishdan xizmat ko'rsatish sohasiga o'tish. Mamlakatlar rivojlanib borar ekan, ishlab chiqarish ko'pincha mehnat xarajatlari pastroq bo'lgan savdo hamkorlariga o'tkazilishi sababli ishlab chiqarish pasayadi.

XULOSA

Yakuniy xulosada shuni ta'kidlash joyizki, o'tgan davrlarda mamlakatlar o'zlarining iqtisodiy pozitsiyalarini yaxshilash maqsadida turli xil ixtisoslashuv jamiyatlarini evalyutsion yo'l bilan amalga oshirdilar. Bu esa, dunyoda iqtisodiy potentsiali va salohiyati yuqori bo'lgan mamlakatlar, o'zlarining yuqori iqtisodiy-



ijtimoiy qudrati bilan yangi postindustrial jamiyatga qadam qo'yishdi. Ba'zi bir mamlakatlar esa o'z imkoniyatlarini hali ham qishloq xo'jaligi va sanoatlashgan jamiyatga safarbar etmoqdalar. Yuqoridagi tahlillarda, Xeksher-Olin va Leontev nazariyalaridagi ayrim xusuiyatlarni e'tiborsiz qolingani natijasida xalqaro savdoda mamlakatning ishlab chiqarish resurlari bilangina emas, balkim, u mamlakatning uchinchi sektorining hamda inson omillarining salohiyati ham xalqaro savdoga ta'siri inobatga olinmaganligi, hamda kapital va mehnatning potentsiali yetarlicha baholanmaganligi mamlakatning xalqaro savdo hamda reytinglarida o'z salohiyatini to'g'ri baholayolmasligiga sabab bo'ladi. Undan tashqari, zamonaviy iqtisodiyotda mamlakatlarning yangicha postindustrial jamiyatlarga o'tishlarida xizmat ko'rsatish sohasidagi inson omilining bevosita hamda bilvosita YaIMda o'z ulushini shakllanishiga olib kelmoqda. Bu esa, YaIMda xizmat ko'rsatish sohasining ulushi yuqori bo'lsa ham uning

natijasi sifatida qo'shilgan qiymat yaratishda juda pastligi ham uning asosiy omili sifatida baholanishi, kelajakda intellektual iqtisodiy jamiyatning vujudga kelishiga turtki bo'lmoqda. Natijada, bu jamiyatning natijaviylik salohiyati juda yuqori bo'ladi va ma'lum bir hududda ishlab chiqarish omillari (kapital, resurslar va mehnat kuchi) mavjud bo'lmasa ham xalqaro iqtisodiy reytinglarda yuqori o'rinlarni egallaydi va o'z-o'zidan iqtisodiyot nazariyasining fundamental qonun-qoidalarini chetlab o'tadi. Xulosam yakunida bir fikrni aytish o'rinli, ayni davrda har bir mamlakat o'ziga xos iqtisodiy potentsiali va salohiyati yoki bir ixtisoslashgan tarmoqga ega, shunday ekan, ularni iqtisodiy kamsitish yoki iqtisodiy tabaqalarga ajratish noo'rindir. Biror bir mamlakat chorvachilikga asoslangan jamiyatda bo'lsin yoki Postindustrial jamiyatda bo'lsin, ammo aholisi farovon va to'q yashashligi, u yerda iqtisodiyotning mukammal shakllanganligidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Michael Lewis "Travels in the New Third World" Paperback, Published September 4th 2012 by W. W. Norton Company.
2. Фигурнова, Н. П. Международная экономика: учеб. пособие / Н.П. Фигурнова. — Москва: Издательство «Омега-Л», 2007
3. Nazarova G.G., Xalilov X.X., Xanova I.M., Hakimov N.Z., Bobojonov B.R. Jahon iqtisodiyoti. T.: MChJ "RAM-S", 2007 y
4. Shodiyev R.X. Jahon iqtisodiyoti. T.: G'ofur G'ulom, 2005
5. Международные стратегии экономического развития: Учеб. пособие / Под ред. Ю.В.Макогона.- К.: Знания, 2007.
6. Nazarova G.G., Haydarov N.X. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – T.: TDIU, 2005.
7. Экономика зарубежных стран. Назарова Г.Г., Адилова З.Д., Мухамеджанова Г.А. Т.:ТГЭУ, 2007 г.
8. Horst Siebert "The World Economy" ISBN 9780203815359 Published April 27, 2018 by Routledge 2nd Edition



9. Daron Acemoğlu, James A. Robinson "Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty" Published March 20th 2012 by Crown Business (first published March 2012).
10. A.V.Vaxabov, D.A.Tadjibayeva, SH.X.Xajibakiyev "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlari"